

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EKSPRESSIV INKORNING IFODALANISHI

Buranova Dildora Ximmatovna

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

mrsdildora.buranova@gmail.com

Annotatsiya. Inkor kategoriyasi faqatgina mavjudlikni rad etibgina qolmaydi. Negativlik orqali so'zlovchining munosabati, hissiy kechinmalari, noroziligi, yoki biror holatga bergan bahosini ham aks ettirish mumkin. Bu esa nutqning emotsional va kommunikativ qatlamlarini shakllantirishda xizmat qiladi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ekspressiv inkor hodisasining lingvistik ifodalanish xususiyatlari, ularning strukturaviy va pragmatik jihatlarini hamda inkorning emotsionalligini kuchaytiruvchi yoki kamaytiruvchi vositalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekspressiv inkor, salbiy ekspressivlik, kuchaytiruvchi vositalar, tasdiq bo'lmagan shakllar, kuchsizlantiruvchi vositalar, kinoyali inkor.

Expressive Negation in English and Uzbek Languages

Buranova Dildora Khimmatovna

Doctoral student, Termez State University

Abstract. The category of negation does not merely serve to deny existence. Through negativity, it is also possible to convey the speaker's attitude, emotional experiences, dissatisfaction, or assessment toward a particular situation. It plays a significant role in shaping the emotional and communicative layers of speech. This article analyzes the linguistic features of expressive negation in English and Uzbek, focusing on its structural and pragmatic aspects, as well as the linguistic means that intensify or diminish its emotional expressiveness.

Keywords: *expressive negation, negative expressiveness, intensifiers, non-affirmative forms, mitigators, ironic negation.*

Экспрессивное отрицание в английском и узбекском языках

Буранова Дильдора Химматовна

Докторант

Термезский государственный университет

Аннотация. Категория отрицания не ограничивается лишь отрицанием существования. Посредством различных форм негативной экспрессии говорящий выражает своё отношение, эмоциональное состояние, недовольство или оценочное суждение по поводу определённой ситуации. Подобные выражения играют важную роль в формировании эмоционального и коммуникативного уровней высказывания. В данной статье рассматриваются лингвистические особенности экспрессивного отрицания в английском и узбекском языках, анализируются его структурные и прагматические характеристики, а также языковые средства, усиливающие или ослабляющие его эмоциональную выразительность.

Ключевые слова: экспрессивное отрицание, негативная экспрессия, усилители, неутвердительные формы, смягчающие элементы, ироническое отрицание.

Negativlikni aks ettirishda qo'llaniladigan ayrim usullar boshqa funksiyalar bilan bir qatorda nutqda ekspressivlikni hosil qilish vazifasini ham bajara oladi. Rus tilshunoslari E.M. Kubarev, L.K. Chistonogova, N.A. Gastilene, I.V. Andreyeva, R.I. Kamshilova, M.N. Smetanina, L.V. Azarova [5] ekspressiv inkor ma'nosini ifodalovchi maxsus sintaktik tuzilmalar va alohida gap turlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bir qator izlanishlar olib borgan. Bundan tashqari, tilshunos olimlar O. Jespersen, L.M. Minkin, B.R. Mamedov, S.A. Ferents, O.V. Ozarovskiy [5] semantik inkorni kuchaytirish orqali ta'sirchan effektga erishish vositalari sifatida inkor

ifodalariga qo'shiladigan turli kuchaytiruvchi komponentlar, uslubiy usullar va intonatsiyani ko'rsatib o'tganlar[6].

Tilshunos olim I.V.Arnold inkor ma'no inkor affikslari orqali ifodalanganda so'zlar ma'lum darajada ekspressivlikka ega ekanligini ta'kidlaydi. Inkor affikslari asosdagi belgi yoki hodisaning ta'riflangan kabi emasligini bildiradi. Ushbu so'zlarning ekspressivligi tasviriylikka asoslangan bo'lib, u odatiy xarakterga ega[1]. Ingliz tilida media matnlarida inkorni ifoda etuvchi affikslar faqatgina negativlik ma'nosinigina emas, balki gapga quyidagi ekspressiv ma'nolarini beradi:

1. Hayrat, hayajon va taajjub: *"It is **unbelievable**," said Kéré, speaking from his office in Berlin. (The Guardian.15.03.2022).*
2. Umidsizlik, tushkunlik va bezovtalik: *I felt so hopeless. I wanted to walk away. (The Times.14.04.2024)*
3. Norozilik, qarama-qarshilik, tanqid: *We may **disagree** on questions of freedom of speech, but we don't think people should be penalized for peacefully expressing their views. (The Guardian.14.07.2025)*
4. Shubha, hayrat: *However, if something is non-fungible, this is **impossible** - it means it has unique properties so it can't be interchanged with something else.(BBC.16.12.2022)*

Shuningdek, ingliz tilida inkor ma'no kuchaytiruvchi vositalar yordamida urg'u oladi. Bunday vositalar qatoridan asosan olmoshlar, yuklamalar, miqdor va daraja ravishlari o'rin oladi[6]: *at all, what (so) ever, either, yet, still, quite, pretty, rather, far, definitely, in the slightest, in the least, a bit, in (all) my life, even, a single, a thing, a damn, an inch.*

Masalan: *I wouldn't say underachieved at all. (Fox 2 News.15.07,2025); A lot of your friends don't know yet. (Fox News.15.07.2025);*

Bundan tashqari, inkorning ma'nosini kuchaytirishda xizmat qiluvchi "tasdiq bo'lmagan shakllar" (non-assertive forms) ham qo'llaniladi. Ularning semantik jihatdan ijobiy bo'lgan gapda ishlatiladigan tasdiq shakli, gap inkor shakliga o'zgartirilganda inkor shakliga almashtiriladi[6]: *any, anything, anybody, anyone,*

anywhere, anyplace, anytime, in any way, any more, any longer, in any respect, by any means. Masalan: *But it is not food anymore.* (No reservation. Travel channel. 10.03.2024)

Inkorning ma'nosini kuchaytiruvchi vositalar bilan bir qatorda, uning ma'nosini kuchsizlantiruvchi vositalar ham mavjud: ***half, practically, almost, hardly, more or less, slightly, a bit, a little, somewhat, not quite, barely.*** Bunda diskursda ma'no ataylab pasaytirilgan intensivlik bilan ifodalanishi mumkin, biroq bu holat nutqning hissiy va mantiqiy xarakterini susaytirmaydi[2]. Masalan: *Forty-seven per cent of Britons are '**somewhat**' proud of their country.* (The guardian, 14.04.2014)

Ekspressiv inkorni ifodalashning yana bir usullaridan biri polinegativlik (ikki yoki ko'p inkor)dir. U og'zaki so'zlashuv uslubiga xos xususiyat bo'lib, rasmiy bo'lmagan nutq jarayonlarida qo'llaniladi. Polinegativlikda nutq uchun nostandart belgilar namoyon bo'ladi: fe'llarning me'yordan chetga chiqqan holda qo'llanilishi, gap tarkibida so'zlar tartibining buzilishi, ayrim gap bo'laklarining tushib qolishi, fonetik buzilishlar va boshqalar. Biroq bunday gaplarda ma'no ifodasi odatdagi inkor gaplardagidan ko'ra kuchliroq bo'ladi[6]. Masalan: *"I ain't never done seen that word spelled that way."* They cared; they wanted to win. (The Guardian. 29.07.2006)

Inkor gaplarda ekspressivlikni oshirish maqsadida, ko'pincha so'roq shaklidagi konstruksiyalar qo'llaniladi. Bunday gaplarda inkorni ifodalash uchun so'roq gaplarning barcha grammatik tuzilmalari so'roq so'zi bilan ham so'roq so'zisiz ham ishlatilishi mumkin. Shu kabi holatlarda gap ritorik so'roq shaklida bo'ladi[5].

Ekspressiv inkor hodisasi keng qamrovli til hodisasi bo'lib, u gapning barcha funksional turlarini o'z ichiga oladi. Ekspressiv-kinoyali inkorni uchala funksional gap turida ham (darak, so'roq va buyruq gaplarda) uchratish mumkin:

1. Ekspressiv-inkorli so'roq gaplar: *Don't you see the distinction?* (The Guardian. 11.04.2014); *Who would disobey him if he ordered clandestine service to rebuilt secret prisons to overthrow a sovereign nation to assassinate his political enemies?* (MSNBS. 19.07.2025)

2. Ekspressiv-inkorli darak gaplar: *"It looks very bad, very very bad," said eyewitness Tim Downie. "I've never seen anything like this. It's just such a big fire."* (BBC.14.06.2017)

3. Ekspressiv-inkorli buyruq gaplar: *Don't make me repeat myself. (At the table, podcast. 25.09.2020);*

Shuningdek, ingliz tilida salbiy ekspressivlikni ifodalashda haqorat va so'kinish so'zlari ham qo'llanilib, ular insonlar o'rtasidagi munosabatni buzuvchi vositaladir. Shu sababli ularning muloqotda ishlatilishi ko'pincha salbiy hissiyotlarni ifodalashga xizmat qiladi. *"Idiot", "moron", "stupid", "fool", "dump", "nitwit", "blockhead", "birdbrain"* kabi so'zlar ham salbiy emotsiya, ham salbiy baho ma'nolarini o'zida jam etadi [3]. Masalan: *"Don't be a tough guy. Don't be a fool!" he finished, adding: "I will call you later."* (The Guardian, 17.10.2019)

O'zbek tilida uslubiy bo'yoqdor so'zlardan nutqda his-tuyg'ulami, so'zlovchining voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Ular jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibr, masxara, nafrat, g'azab, kinoya, kesatiq ma'nolarini aks ettirgan holda nutqda ekspressivlikni oshirishni ta'minlaydi. O'zbek tilida nutqda ekspressivlik quyidagicha ifodalanadi [4]:

1. Leksik usul. Bunda uslubiy bo'yoqdor so'z qo'llaniladi: **hech, sira, mutlaqo, also, nahotki.** Masalan: *Nahotki bu narsani bilish uchun tok-shouga olib chiqish shart bo'lsa? (shart emas)* (Subyektiv, 02.09.2023)

2. Kontekstual usul. Bunda uslubiy bo'yog'i yo'q bo'lgan so'z ma'lum kontekst yoki nutqiy muhit ta'sirida uslubiy buyoqdor so'zga aylantiriladi. Masalan: *Shu tariqa Ruelas o'ng qo'lini pastga tushirishga majbur bo'ladi, Arturo esa bundan foydalanib qolib, raqibining tumshug'iga zarbalar kombinatsiyasini yo'llaydi, bu esa o'z navbatida nokautga olib keladi.* (Daryo.uz, 15.04.2022) (Bu jumlada tumshuq so'zi o'ziga xos bo'lmagan kontekstda —hayvonga emas, odamga nisbatan qo'llangan, natijada unda insonga nisbatan hurmatsizlik, nafrat munosabatlari ifodalangan.

3. Affiksatsiya usuli. Bunda betaraf ma'noli so'zlarga subyektiv baho ifodalovchi affiksalar morfemalar qo'shiladi. Masalan: *Unaqalar hayo chegarsini,*

odamiylik hadini oshib o'tgan yuzsizlar! To'yona qarz sifatida berilmaydi.
(Aniq.uz,21.02.2019)

4. Fonetik usul. Bunda so'z tarkibidagi undoshlardan biri qavatlantiriladi unlilar cho'ziladi, urg'uning o'rni o'zgartiriladi, shular hisobiga ekspressivlik ta'minlanadi. Masalan: *Bechora Viktor esa dosh bera olmadi.* (Daryo.uz, 31.03.2020) – *ushbu gapda “bechora” so'zidagi urg'uning ko'chishi tufayli achinish hissi oshiriladi.*

5. So'zni metaforik qo'llash usuli [4]. Masalan: *«Hurmatli ustoz kasbdoshlar. Har qanday sharoitdayam korrupsiyaga yo'l qo'ymang. Maktabda o'tirgan „to'nkalar“ ham qimirlasin. Kimligini bildingiz. O'shalarga Yaratgandan insof tilab qolaman», — deyiladi xatda.* (Gazeta.uz,27.08.2025). Bu jumlada ko'p ma'noli so'zning metaforaga asoslangan majoziiy ma'nosidan foydalanilgan.

Grammatik tuzilishi turlicha bo'lishiga qaramay, ekspressiv inkorni ifodalashda gaplarning funksional turlari semantik jihatdan bir-biriga yaqinlashadi va ekspressiv-kinoyaviy inkorni ifodalovchi yagona tizimni hosil qiladi. Bu holat har xil funksional tuzilmalar orasida o'zaro moslik va ularning sinonimlashuv imkoniyatini ta'minlaydi [5]. Masalan: *Chalma bunga qarsak, bu nimasi uchun o'rin oladi?!* (o'rin olishga arzimaydi) (Aldama meni, 12.11.2023) – *Chalma bunga qarsak, o'rin olarmish!* (o'rin olishga arzimaydi) – *Chalma bunga qarsak, qanaqa o'rin?!* (o'rin olishga arzimaydi).

Ingliz tilidagi kabi, o'zbek tilida media matnlarda salbiy munosabatni ifoda etuvchi so'kinish va haqorat so'zlari uchrab turadi. So'kinish salbiy ekspressivlikning eng keskin ko'rinishlaridan biridir va u ko'pincha haqoratli so'zlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi: [7] **ahmoq, nodon, kaltafahm, tovuqmiya.** Masalan: *“Ronald **nodon**. U ikki yildan buyon Italiyada va haligacha bizning tilni o'rgangani yo'q. U tushuntirishlarda ispan tilidan foydalanadi. U na o'z jamoadoshlarini, na italiyaliklarni hurmat qilmaydi”, — deydi Bruno.* (Daryo.uz, 04.11.2020)

Shuningdek, o'zbek tilida ham ritorik so'roq gaplar hamda sukut akti orqali ham ekspressiv va emotsional inkorni aks ettirish mumkin. *Masalan: Buni ahvoliga qarang! Yulduzchalar shunaqa bo'ladimi? – ushbu jumlada “bunaqa bo'lmaydi” ma'nosi aks etmoqda. (Teleduel, Zo'r TV, 01.10.2023); Boshqacha bo'lishi mumkinmidi o'zi??? (sukut orqali yo'q ma'nosi anglashilyapti) (Subyektiv, 05.01.2023).*

Ekspressivlik — bu til birligining nutq xarakterini miqdoriy yoki sifat jihatdan kuchaytirish yoki kamaytirish orqali o'zgartirish xususiyatidir. Ekspressiv inkorning ifodalanish usullari so'zlovchining kognitiv tajribasi, kommunikativ kontekst va shaxs hamda jamiyatning qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR

1. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. М., 1981. С.116–118
2. Азарова Л.В. Прием преуменьшения и его функция в современном английском языке. Автореф. канд. дис.. Л., 1981. С.11
3. ¹Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. Pearson. - 2013.
4. ¹ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: Talqin. 2005. – 211-bet.
5. Калинина А.А. Категория утверждения/отрицания в функциональных типах предложений в современном русском языке. дис. ... д-ра филол. Наук. Москва, -2011.- С.273.
6. Пилатова В.Н. Экспрессивное отрицание в современном английском языке. дис... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2002.- С.56
7. ¹ Turg'unov Sh.N. Salbiy ekspressivlik: haqorat, kamsitish va so'kishni hosil qiluvchi lingvistik birliklar. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. 29-31-betlar